



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



ijodiy fikrlash, o'zini ifoda etish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 464 б.
2. Федеральная рабочая программа основного общего образования. Литература. – М.: 2024. –128 с.
3. Adabiyot fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Loyiha. – Toshkent: 2021. – 212 b.
4. A'zam M. Saylanma. – Toshkent: Cho'lpon, 2005. – 560 b.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 10-sinflari uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 312 b.
6. Olim S.va boshq. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 8-sinflari uchundarslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. – 352 b.
7. Orta ögretim türk dili ve edebiyati dersi. Ögretim programi (hazirlilik, 9,10,11 ve 12. siniflar).– Türkiye: 2018. – 64 s.
8. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 2-qism. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 11-sinflari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200 b.
9. Yo'ldoshev Q. Va boshq. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 368 b.
10. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Shafoatnurfayz, 2023. – 336 b.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/KZLK4470

## **TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH**

### **Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining  
1-bosqich tayanch doktoranti  
[saydullayevashoira3@gmail.com](mailto:saydullayevashoira3@gmail.com)  
ORCID: 0009-0000-5105-2319*

**Annotatsiya.** Psixologiya va sotsiologiya fanlarida o'rganiladigan nazariyalarni badiiy adabiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilish mavjud muammolar mohiyatini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Shunday nazariyalardan biri konspirologiyadir. Mazkur maqolada konspirologiya nazariyasi haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, uning badiiy talqini misollar orqali yoritilgan. Konspirologik syujetlarning, ayniqsa, tarixiy romanlarda asosiy o'rinni egallashi ma'lum. Maqolada bu asarlar tahlil qilinib, uning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati ochib berilgan. Tarixiy romanlar o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni aks ettirib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga yordam beradi. Tadqiqotda Odil Yoqubov, Pirimkul Qodirov va A.S.Pushkin asarlarining konspirologik tahlili hamda uning inson dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'mni haqida mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, konspiratsiyalarning hozirgi davrda mavjud ko'rinishlari borasidagi xorijlik olimlarning fikrlari ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** konspirologiya, fitna nazariyasi, tarix, sotsiologiya, ijtimoiy, tarixiy roman, tanqidiy fikrlash, inson obrazzi.



**Abstract.** Analyzing the theories studied in psychology and sociology from the point of view of fiction serves to further understand the essence of existing problems. One of such theories is conspirology. This article provides detailed information about the theory of conspirology, and its artistic interpretation is illustrated through examples. It is known that conspirological plots occupy a key place, especially in historical novels. The article analyzes these works and reveals their importance in education and upbringing. Historical novels reflect the socio-political problems of their time and help students think critically. The study presents a conspirological analysis of the works of Odil Yakubov, Pirimkul Kadirov, and A.S. Pushkin and their role in the development of human worldview. The opinions of foreign scholars on the current manifestations of conspiracies are also cited.

**Keywords:** conspiracy theory, history, sociology, social, historical novel, critical thinking, human image.

*Kirish.* Badiiy adabiyot boshqa sohalar bilan faol aloqaga kirishadi. Xususan, psixologiya, sotsiologiya, tarix va boshqa shu kabi ijtimoiy fanlardagi nazariyalarni adabiyot nuqtayi nazaridan o'rganib chiqish mavjud muammoning mohiyatini ochib berishga va asarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Bu maqolada ijtimoiy sohalarda keng qo'llanib kelinayotgan konspirologiya nazariyasining badiiy talqini xususida ayrim mulohazalarni bayon qilamiz.

*Muammoning o'rganilishi.* Konspirologiya lotincha *conspiratio* (birlashish) va inglizcha *conspiracy* (fitna) so'zlari bilan bog'liq bo'lib, bu konspiratsiyalar, ya'ni yashirin va sirli tarzda ma'lum bir guruh yoki tashkilot tomonidan amalga oshirilgan hodisalar haqidagi nazariya (soha)dir. Vikipediya lug'atida "*Fitna nazariyasi – konspirologiya* – ma'lum bir muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega voqealarni, tarixiy hodisalarni yoki umuman butun tarix yo'naliш natijasini qandaydir bir guruh (davlat ichidagi davlat, dunyo hukumati) odamlar tomonidan xudbinlik, g'araz maqsadlar yo'lida boshqarilishi, uyushtirilishini ta'kidlovchi konsepsiya sifatida ta'rif beriladi [6. Internet ma'lumotlari].

Konspirologiya asosan psixologiya, sotsiologiya, tarix va politologiya fanlarida o'rganilib, u qarash va nazariyalar shaklida siyosiy jarayonlarni, ijtimoiy hodisalarni va insonlarning fikrlash usullarini tahlil qiladi. Demak, bu nazariyaning mohiyati shundaki, ma'lum bir insonlar yoki guruhlар tomonidan boshqa bir insonlarga yoxud guruhlarga uyushtirilgan fitna konspiratsiyadir. Bu shunday fitnaki, uning yolg'onligini isbotlashning imkonи yo'q. Hozirgi kunda sodir etilayotgan kiberjinoyatchilikni bunga misol qilib olsak bo'ladi. Axborotning hamma uchun ochiqligi va tarqalishining osonligi sabab xokkerlar qiyinchiliksiz konspiratsiya jarayonlarini olib bormoqda. Afsuski, ularning bu ishlarini fosh qilish imkonsiz.

Haqiqiy fitnaning eng keng tarqalgan misollaridan biri bu yirik kompaniyalar raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish va ularni boshqarish uchun o'zaro yashirin bitim tuzishi, monopolistik fitna yoki ishlab chiqaruvchilarining fitnalari hisoblanadi. Misol: 90-yillarda Qo'shma Shtatlarda chekishning zararli ta'sirini yashirish maqsadida uyushtirgan, keyinchalik fosh qilingan va sud jarayonlarigacha yetib borgan tamaki kompaniyalari fitnasi [6. Internet ma'lumotlari].



Bir necha yillardan buyon mazkur nazariyani o'rganuvchi olimlar bu haqda turlicha fikr bildiradilar. Tyubingen universitetining Amerika adabiyoti va madaniyati tarixi professori Maykl Batter ko'p yillardan beri fitna nazariyalarini o'rganib keladi. Uning fikricha, fitna nazariyalari dunyoni yaxshilik va yomonlikka ajratadi. Ularning orasida hech narsa yo'q. Boshqa tomondan, hokimiyatni yo'qotishdan azob chekayotganini his qiladigan odamlar bunga moyil. Ular bir guruh yoki hatto butun bir xalq ustidan nazorat ulardan uzoqlashayotganiga ishonishadi. Ushbu guruh uchun fitna nazariyalari jozibador, chunki ular nafaqat ularga nima bo'layotganini tushuntirishni taklif qiladi, balki vaziyatni biroz nazorat qilishni ham qaytaradi [7. Internet ma'lumotlari]. U bir nechta tarixiy voqealar fitna sababli yuz berganligini ta'kidlaydi. Bunga misol sifatida 2019-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq holatlarni keltirib o'tadi.

Badiiy adabiyotda ham konspiratsiyalardan foydalaniladi. Bu haqda Manchester universitetining Amerika tadqiqotlari professori Piter Knightning "Fitna nazariyalarining adabiyot bilan bog'liqligi" ("Conspiracy theory in literature") [8. Internet ma'lumotlari] nomli maqolasida batafsil ma'lumot berilgan. Mazkur tadqiqotda konspirologik ruhda yozilgan asarlarning siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi ham aytib o'tiladi.

Bugungi adabiyot o'qitish metodikasi fani oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilar (talabalar)ga asarni to'g'ri tahlil qilib berishni o'rganish va bu orqali ularning fikrlash darajasini rivojlantirishdir.

Epik asarlar sirasiga mansub roman janri inson hayotini muayyan badiiy makon va zamonda butun murakkabligi bilan, jamiyat va tabiat bilan aloqadorlikda har tomonlama to'liq tasvirlashga qaratilgan ko'p planli syujetga ega bo'lgan asardir. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir butunlikda, mustaqil hodisalar sifatida tahlil hamda talqin qilinadi. Romanda muayyan shaxs taqdiri oilaviy-maishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy muhit bilan o'zaro uzviy aloqadorlikda tasvirlanadi. Roman janri markazida inson obrazi turadi [1. 202]. Yuqorida biz tadqiq etayotgan nazariyani tarixiy romanlar misolida o'rganish mumkin. Chunki bu mavzudagi romanlar syujeti konspirologik elementlardan tashkil topadi. Fitnalar aksariyat insoniyatning ijtimoiy va siyosiy muammolarini aks ettiradi, bu esa o'quvchilarga muammolarga real qarash kerakligini o'rgatadi. O'tmishdagи fitnalarni aniqlash tarixiy tadqiqotlarni chuqurlashtiradi, tarixiy voqealar haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi va o'ziga kerakli dars olish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini rivojlantiradi. Ular fitna sababli yuzaga kelgan hissiyotlarni his qilib, boshqa insonlarni to'g'ri tushunishni o'rganadilar.

Adabiyot o'qituvchisi sifatida o'quvchilarga quyidagi tarixiy asarlarni mustaqil tahlil qilish uchun tavsiya etishimiz mumkin:

- Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" va "Ulug'bek xazinasi" romanlari;
- Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovonii" romanlari;
- Oybekning "Qutlug' qon" va "Navoiy" romanlari;
- A.S.Pushkinning "Motsart va Salyeri" romani;



- Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari va boshqalar.

Mazkur asarlarda konspirologik elementlar ma'lum darajada bor, albatta. Masalan, Odil Yoqubovning “Ko'hna dunyo” romanida soxta Ibn Sinoning fosh etilmasligi; “Ulug'bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug'bekka qarshi kuchlarning xufiyona olib borgan ishlari; Oybekning “Navoiy” romanida Alisher Navoiyning Astrobodga surgun qilinish voqealarida fitnaning turlicha ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. Bu tarzda olib borilgan tahlil jarayonlari o'quvchining shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani misolida konspirologik tahlil namumasini ko'rib chiqamiz.

Badiiy asarni tahlil qilish usullari uning ustida olib boriladigan ishlarning umumiyo'nalishini belgilab beradi. Bu yo'nalishlar asarni o'rganish jarayonida bir-biri bilan bog'langan, o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan mustaqil turkumlarga bo'linadi. Turkumlar kirish, asar ustida ishslash, o'qish va tahlil qilish, yakunlovchi mashg'ulotdan tarkib topadi [3. 133]. Tahlil jarayonini quyidagi bosqichlarda olib borish maqsadga muvofiq:

1. Kirish. Bu bosqichda asar muallifining tarjimayi holi, u yashagan davr haqida suhabat olib boriladi:

- Abdulla Qodiri hayoti va ijodining muhim tomonlarini mazmunli va qiziqarli bayon etish;
- muallifning jadidchilik faoliyati bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratish;
- Abdulla Qodiri yashagan davr (XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmi)ning ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida ma'lumot berish.


2. Asar syujetidan konspiratsiyani topish. Bunda “Mehrobdan chayon” romanidagi fitna bilan bog'liq jarayon aniqlanadi. Asarning bosh qahramoni Anvar fitna natijasida choraszizlikdan qochishga majbur bo'lishi va dor ostigacha borish holatlari tahlil qilinadi.

3. Fitna uchun vaziyatning yetilishi. Bunda yashirin harakatlar olib borishga undagan sabablar aniqlanadi. Ushbu jadvaldagagi ma'lumotlar o'quvchilar bilan birgalikda davom ettirilishi mumkin.

Anvarning nihoyatda qobiliyatli ekanligi  
 Abdurahmonning qora o'tmishi va toleyining pastligi  
 Anvarning xon e'tiboriga tushishi  
 Xalqning Anvarga bo'lgan mehr-muhabbati, undan roziligi  
 Abdurahmonning vazifasidan bo'shatilishi  
 ...

4. Fitnaning amalga oshishi. Bunda romandagi fitna qanday boshlangani, davom etishi va yakunlanishi haqidagi jarayonlar tahlil qilinadi.





*Birlashuv* bosqichida mulla Abdurahmon boshchiligidagi Kalonshoh va Shahodat muftilarining topishib olishi va ularni birlashtirgan umumiy sabablar o'rjaniladi.

*Kelishuv* bosqichida ular tomonidan tuzilgan reja tahlil qilinadi.


Gulshanning Ra'nolarnikiga borish voqeasidan fitnaning *boshlanganligi* aniqlanadi.

*Voqealar rivojida* xonning Ra'noga sovchi yuborishi, Anvar va Ra'noning qochishga majbur bo'lishi, Sultonalining qamalishi bilan bog'liq syujetlar tahlilga tortiladi.

*Yakuniy* bosqichda Anvarning dor ostigacha kelishi hamda yaqinlarining yordami bilan qutulib qolishi o'rjaniladi.

*5. Xulosa.* Bu jarayonda o'rjanigan fitnaning xususiyatlari va natijalari tahlil qilinadi. Mulla Abdurahmonning Anvarga qo'llagan fitnasi juda puxta o'ylangan reja asosida amalga oshirilgan. U Anvarning nozik nuqtasini yaxshi bilgan, ya'ni uning hayotidagi eng qimmatli bo'lgan sevgisi – Ra'nos – ekanligidan foydalangan. Shuningdek, o'quvchilarga xonning yosh qizlarni xotinlikka olishi o'sha davrning eng mudhish "an'analari"dan biri bo'lganligini ham ta'kidlash joiz.

Shu bilan birga fitna jarayonlarining oqibatlari haqida ham gapirib o'tish lozim.



Mazkur chizmada berilgan oqibatlar kengroq tahlil qilinadi. Bunda o'quvchi (talaba)larning mustaqil fikrlari so'ralib, umumlashtiriladi.

Mashhur pedagog Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaydiki: "Ta'lism kechimida asosiy e'tibor o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlargagina emas, balki bolalarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, mustaqil fikri, tanqidiy yondashuvini tarkib topdirishga qaratilib, ularni o'zini o'zi o'qitadigan, kerak bo'lgan har qanday axborotni izlab topa biladigan va u bilan maqsadga muvofiq yo'sinda ishlay oladigan qilib shakllantirishga qaratilishi kerak [4. 299]. Boshqa bir taniqli pedagog-olima Qunduz Husanboyeva yozadiki: "O'quvchini borliq hodisalariga yondashishga o'rgatishda ularning ichki qiziqishlarini uyg'otish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi" [5. 404].

*Xulosa qilib aytganda*, tarixiy romanlardagi fitnalarni aniqlash o'quvchining tarix haqiqatlarini to'laqonli tushunishga, uni idrok etishga undaydi; fikrlash darajasini o'stirish orqali ijtimoiy munosabatlarga qiyinchiliksiz kirishuvini ta'minlaydi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi, – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010, 202-bet.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi, – Т., 2018.
3. Зуннунов А., Хотамов Н. ва бошқалар. Адабиёт ўқитиши методикаси, – Т., 1992.
4. Қозоқбай Йўлдош. Жиловланмаган тафаккур маҳсули Т.: Тафаккур, 2024. – 628 б.
5. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lism. – Т., 2022. - 404 b.
6. <https://uz.wikipedia.org>
7. [www.deutschland.de](http://www.deutschland.de)
8. <https://www.unesco.org>

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/UMZB8027

#### **ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI**

##### **To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ona  
tili va adabiyoti ta'limi fakulteti, 1-bosqich doktoranti  
+99891 (016-07-96) [tuganovadinara82@gmail.com](mailto:tuganovadinara82@gmail.com)*

ORCID: 0009-0000-5914-6571

UO'K: 820:371.3

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot darslarida interaktiv o'qitish modelining ahamiyati, dars jarayonida samarali qo'llash usullari va amaliy natijalari haqida fikr yuritiladi. Interaktiv, interaktiv va ekstroaktiv o'qitish modellarining farqlari ochib beriladi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada bugungi kundagi adabiyot darslarida hikoyalarni zamonaviy yondashuvlar orqali tahlil qilish xususida so'z yuritiladi. Multisensorli o'qitish usuli yordamida Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasining tahlil jarayoni ko'rib chiqish



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

